

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

## ALISHER NAVOIY QIT'ALARI VA XALQ MAQOLLARI

Yo'ldosh RAHMATOV

Filologiya fanlari doktori(DSc)

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Alfaraganus University

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14806351>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Alisher Navoiyning qit'alarida xalq maqollaridan foydalanish mahorati haqida fikr yuritiladi. Qit'alar mazmunan xalq maqollariga yaqin turadi ulardag'i didaktik xarakter maqollar kabi chuqur va falsafiylikka ega. Maqolada qit'a va maqollar munosabatiga xos masalalar atroflicha yoritilgan

**Kalit so'zlar:** folklor, mumtoz adabiyot, lirik tur, maqol, qit'a, badiiy tafakkur, didaktika, pand-nasihat, Kayumars, Pushang timsol.

**Аннотация:** В статье рассматривается мастерство использования народных пословиц в кытъах Алишиера Навои. Кытъы по содержанию близки к народным пословицам, а их дидактический характер столь же глубок и философичен, как и у пословиц. В статье всесторонне рассматриваются вопросы, связанные с взаимосвязью кытъов и пословиц.

**Ключевые слова:** фольклор, классическая литература, лирический вид, пословица, кытъа, художественная мысль, дидактика, совет, Каюмарс, символ Пушанг.

**Abstract:** The article examines the mastery of using folk proverbs in Alisher Navoi's kit'a. Kit'a are close in content to folk proverbs, and their didactic character is as deep and philosophical as proverbs. The article comprehensively examines issues related to the relationship between kytyakh and proverbs.

**Keywords:** folklore, classical literature, lyrical form, proverb, kita, artistic thought, didactics, advice, Kayumars, symbol Pushang.

Mumtoz adabiy janrlari orasida qit'alar o'zining janriy tabiat bilan alohida ahamiyatga ega. Ahmad Taroziyning "Funun ul-balag'a" asarining "Al-nav'u assolisu-fi bayonil-qit'a" qismida shunday ma'lumot beriladi: "Qit'a uldurkim, avvalg'i misrainda qofiya bo'lmas. Aqalli ikki bayt bo'lur. Va muning ham aksari muqarrar ermas. Har nechakim qofiya tobsalar, aytarlar"[4.13]. Qit'a mazmunan arabcha parcha degan ma'noga ega bo'lib, boshqa janrlardan o'zining sinkretikligi bilan ajralib turadi. Qit'ada mazmun birlamchi bo'lib, unda biror hayotiy nasihat, pand asosiy o'rinni egallab, qat'iy didaktik xarakterga egadir. Shuning uchun ko'p hollarda yirik janrlar orasida ham qo'llanib o'zining qat'iy tarbiyaviy ahamiyati va hukmga egaligi bilan e'tiborni tortadi. "Qit'a lirik tur janrlari ichida realistik xarakterga ega. Unda siqiqlik, ixchamlik fikrni lo'nda hikmatomuz tarzda bayon qilishlik muhimligi uchun pafosi, g'oyaviy dunyosi, tili va tasviriy vositalarida ham o'ziga xoslik, uslubiy me'yor mavjud"[3.15]. Ko'rinadiki, qit'a ham didaktik xarakter va shakliy ixchamlik jihatdan maqollarga yaqin turadi. Shu sabab bo'lsa kerak qit'alarning maqollar bilan munosabati juda yaqin. Ko'p hollarda qit'a tarkibida ibratli fikr

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

xulosasi o‘rnida shoirlar xalq maqollariga murojaat etadilar. Jumladan, o‘zidan keyingi barcha ijodkorlarga ma’nан ustoz bo‘lgan Alisher Navoiyning qit’alari badiiy qurilmasi va teran mazmuni bilan mumtoz adabiyotda alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir qit’alaridagi mazmunni xalq tiliga yaqinlashtirish va xalqning purhikmat maqollari bilan ziynatlash maqsadida ulardan keng foydalangan. Alisher Navoiy maqollarini asosan qit’a xulosasida keltiradi. Ya’ni o‘z fikrini xalq maqoli bilan xulosalashga harakat qiladi. Chunonchi, o‘zbek xalq maqollari orasida “Osmon – yiroq, yer – qattiq” maqoli mavjud bo‘lib, maqol majozan choraszizlik ifodasi uchun qo‘llanadi. Mazkur maqol Alisher Navoiyning diqqatiga sazovor bo‘lib, shoir mazkur maqol asosida shunday qit’a bitgan:

Shohi sipehrqadr Abobakr ul shahe  
Kim, ko‘k ravoqi dargahi qadrig‘a toq erur.  
Bu charxi lojuvard uza xurshid, go‘yiyo  
Ko‘kbo‘z takovarig‘a muzahhab janoq erur.  
Bir pora lojuvard sari go‘yiy angladi  
Kim, bu zaifi xastag‘a ko‘p ishtiyoq erur.  
Hukm etti bir qulig‘aki, taslim aylasun,  
Go‘yo vusuli ul kishi ollinda shoq erur.  
Yerdin desa qazib chiqaray, yer erur qatiq,  
Ko‘k konidin desaki, olay, ko‘k yiroq erur[2.539].

“G‘aroyib us-sig‘arda” keltirilgan ushbu qit’a xulosasida aynan xalqning “Osmon – yiroq, yer – qattiq” maqolining mazmuni saqlangan badiiy ishlanmasini ko‘rish mumkin. Yoki xalqning “Bemahalda qichqirgan xo‘rozni so‘y” maqoli majoziy ma’noda keraksiz o‘rinda gapiradigan, farosatsiz kishilarga nisbatan qo‘llanadi, Alisher Navoiy ham mazkur maqoldan bir qit’asida ayni shu mazmun uchun foydalanadi:

Navoiy, tiling asrag‘il zinhor,  
Desangkim, yemay dahr ishidin fusus.  
Nazar qilki, o‘q og‘zi tilsiz uchun,  
Qilur tojvarlar bila dastbus.  
Necha tojvardur kesarlar boshin,  
Chu hangomsiz nag‘ma tortar xurus [2.534].

Ya’ni dunyo ishidan afsus qilmay desang, avvalo, tilingni tiy, bois bemahal va o‘rinsiz aytilgan so‘zdan kishi boshiga ko‘p balo kelishi mumkin. E’tibor qilsang, o‘q tili yo‘qligi uchun tojdorlar qo‘lida azizdir. Xo‘roz tojdor bo‘lgani bilan bemahal qichqirgani bois boshini kesarlar. Ko‘rinadiki, xalq maqoli qit’a xulosasida juda o‘rinli va foydali keltirilgan Adabiyotshunos I.Haqqul ushbu qit’ani tahlil etib, oxirgi

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

baytdagi “Bemahalda qichqirgan xo‘roznинг бoshini olish” haqidagi fikrning kelib chiqishini shunday izohlaydi: Xo‘roznинг bemahalda qichqirishi hanuzgacha xosiyatsiz hodisa sanaladi. Nega? Bu ham afsonaviy voqeа bilan aloqador. Olis asrlarda Kayumars degan podshoh bo‘lgan ekan. U adolatli, ko‘p joylarni obod etgan emish. Kayumarsning Pushang otli o‘g‘lini Damovand tog‘ida devlar o‘ldirishadi. Bundan bir qush ogoh bo‘lib, qattiq nola qila boshlaydi. Shoh shu qush “yo‘lboshchiligid” o‘g‘lining jasadini topadi. Kayumars yo‘lda ketayotib bir oq xo‘rozni uchratadi. U yo‘l boshida turib qichqirmoqda, sal olisroqda bir tovuqni ilon o‘rab olgan. Xo‘roz qichqiribgina qolmasdan jon-jahdi bilan ilonga tashlanar ham edi. Bu holat Kayumarsga xush keladi va: “Agar xo‘roz o‘z juftini qutqarish uchun kurashayotgan ekan, demak bu jonivorning ham fe’li insonga o‘xhash”, deydi. U ilonning boshini yanchib, xo‘roz bilan makiyonni ozod qiladi. Ularni o‘z o‘g‘illariga berib, asrab-avaylashni buyuradi. Shundan boshlab elda tovuq saqlash rasmga aylanadi. Chunki ular bor xonadonlarga devlar yo‘lamas emish. Xo‘roznинг chaqirishi esa yaxshilik belgisi. Unda Navoiy nega bemahal qichqirgan xo‘roznинг boshi kesilishi to‘g‘risida eslatayotir? Bu hodisa ham Kayumars taqdiriga bog‘langan. Bir kuni o‘sha oq xo‘roz kutilmaganda kechki paytda qichqirib qoladi. Odamlar buning sirini bilolmay hayratlanishadi. So‘ng ma'lum bo‘ladiki, Kayumars o‘lgan ekan. Shuning uchun xo‘roz kechki payt qichqirdimi – bu yomonlik xabari, unday xo‘rozni darhol so‘yish lozim, degan fikr aqida shaklida asrlar mobaynida yashab kelgan. Navoiy bu vosita orqali o‘rinsiz gap, mavridsiz aljirashlar inson o‘limiga ham sabab bo‘lishi ehtimolidan ogohlantirgan[6.240].

Alisher Navoiy qit’alar orasida maqolni ba’zan aynan, ba’zan bayt talabiga mos o‘zgartirilgan holatda qo‘llaydi. Ba’zan esa maqolning xalqqa tegishli ekaniga ham ishora qilib o‘tadi:

O‘yla g‘arqi maydururlar xalq bu davr ichrakim,  
Shar’ning ayn-ul-hayotidin asar mafhum emas.  
Ul sifatkim, bahrning achchig‘ suyida ba’zi el  
Topilur derlar chuchuk su ham vale ma'lum emas[2.536].

Mazkur qit’ a tarkibida qo‘llangan “Bahrning achchiq suyida chuchuk suv ham topilur” iborasi xalqqa tegishli ekanini aytadi. Biroq o‘zbek xalq maqollarining ikki jildlik to‘plamida mazkur maqol uchramaydi[1.9]. E’tibor qilinsa, mazkur ibora mazmuni ham, shakli ham maqol ekanini tasdiqlab turibdi. Qolaversa Alisher Navoiy ham bu gapni el aytadi deb guvohlik berayotir.

Xalq maqollari orasida ta’magirklik va qurumsoqlikni qoralovchi qator maqollar mavjud. Jumladan, “Olarda – jonim-jonim, berarda chiqdi jonim”, “Olarda – “kirar jonim”, berarda – “chiqar jonim”, “Olishda – “Bismillo”, berishda –

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROOSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

“Astag‘pirullo”(1.304) kabi baxillikni tanqid qiluvchi maqollar juda ko‘p qo‘llanadi. Shundan ma'lumki, xasislik - juda yomon illat. Alisher Navoiy bu illatni qoralab, maqol asosida qit'a yaratgan:

Siyumni sochquchi mingdin birdur,  
O‘zgalarning ishi keldi termak.  
Ul jihatdin budurur odatkim,  
Yulmoq osonduru mushkil bermak[2. 505].

Alisher Navoiy ijodiy an'analarini davom ettirgan Zahiriddin Muhammad Bobur qit'alarida ham maqoldan mahorat bilan foydalanilgan. Jumladan, quyidagi qit'aga e'tibor qilsak:

Otani chunki qibla debturlar,  
Qibla yanglig‘ anga nazar qilg‘il.  
Ota og‘ritma, ey odam, zinhor,  
Ota ozoridin hazar qilg‘il.

Qur'oni karimda ham, Hadisi sharifda ham farzandning ota-onas oldida tavozeli bo‘lishi ko‘p ta'kidlangan. Buning ta'sirida “Ota oldida kek urma, odobingga chek urma”, “Ota oldidan o‘tma, odob oldidan ketma”[5.321] kabi maqollar yuzaga kelgan. Boburning yuqoridagi qit'asida xalq maqollaridagi mazmun asos bo‘lgan. Chunki shoир qit'a boshlanmasida “Otani chunki qibla debturlar”, - deya iboraning xalqqa qarashli ekaniga ishorat qiladi. Keyin iborani sharhlab, yakuniy xulosada “Ota ozoridin hazar qilg‘il”, – deb xalqning “Otasini og‘ritgan el ichida xor bo‘lar” maqoliga etib bog‘laydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, qit'a va maqollarning munosabati nihoyatda uzviy. Qit'a ham, maqol ham qator bir xilliklarga ega bo‘lib, ulardagi majoziylik, ixchamlik, falsafiy xulosa, qat'iy hukm deyarli bir xil. Shu bois shoirlar maqollarning izohi va sharhi o‘rnida ba'zan qit'a yaratganlar.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

#### **(Использованная литература / References):**

1. Мирзаев Т. Сўздан сўзниңг фарқи бор / Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б.3-8.
2. Навоий А. Ғаройиб ус сиғар, Муқаммал асарлар тўплами. Учинчи том. – Тошкент: Фан, 1987. – 486 б.
3. Орзивеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Б.15.
4. Тарозий А. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2002. – 1-сон. – Б.13.
5. Ўзбек халқ мақоллари. Икки томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1987. – 366 б.
6. Ҳаққул И. Касби камол ўзни танимоқ. – Тошкент: Тафаккур, 2021. – 240 б.